



TOSHKENT
REPUBLICAN STOCK EXCHANGE

BIRJAVIY TAHLIL

Dekabr 2024



 www.uzse.uz

 100170;
Узбекистон, Тошкент ш.
Мустақиллик шох кўчаси, 107

 +998 71 267-08-42

Mundarija

| | |
|--|-----------|
| BIRJA SAVDOLARI..... | 3 |
| Birja savdolari tahlili | 4 |
| Birja savdo maydonlari tahlili..... | 5 |
| “Bond Market” obligatsiyalar bozori»..... | 6 |
| “Main Board” bo’yicha Top – 10 aksiya | 7 |
| “FoP Board” bozori..... | 8 |
| Tarmoqlar tahlili | 9 |
| Investorlarning asosiy toifalari ulushi инвесторо | 10 |
| “Toshkent” RFBda Top - 10 brokerlar..... | 11 |
| Aksiya emitentlarining umumiy bozor kapitallashuvi | 12 |
| Birja kotirovkalash varag’i..... | 13 |
| Savdo narxlari o'zgarishi tahlili | 14 |
| LISTINGDAN TASHQARI SAVDO MAYDONI | 15 |
| LTSMda savdolar tahlili | 16 |
| LTSM savdo maydonlari tahlili..... | 17 |
| “Main Board” bo’yicha Top-5 aksiya..... | 18 |



TOSHKENT
REPUBLICAN STOCK EXCHANGE

BIRJAVIY TAHLIL

Dekabr 2024



www.uzse.uz



100170;
Узбекистон, Тошкент ш.
Мустақиллик шох кўчаси, 107




+998 71 267-08-42

Birja savdolari tahlili

2024 –yilning dekabr oyi davomida “Toshkent” RFB savdo maydonlarida birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan emitentlarning qimmatli qog'ozlari bilan jami 1,07 trln. so'mlik 25 095 ta bitim tuzildi. Bitimlar 63 ta emitentning 8,37 mlrd dona qimmatli qog'ozlari bilan amalga oshirilgan.

2024 - yil Dekabr oyi bo'yicha savdolar hajmi va bitimlar soni



Yakunlangan oy davomida eng ko'p bitimlar 16 – dekabrda 1 835 dona, eng kam bitimlar esa 14 – dekabr sanasida tuzilib, ularning soni 929 donani tashkil etdi. Bitimlarning eng katta hajmi 4 – dekabrda qayd etilib, kun davomida jami 600,18 mlrd.so'mlik bitimlar amalga oshirilgan.

Dekabr oyida tuzilgan bitimlarning o'rtacha kunlik soni 1 255 tani va o'rtacha kunlik hajmi esa 53,46 mlrd. so'mni tashkil etdi. Oy davomida “Stock Market” aksiyalar bozorining “Main Board” savdo maydonidagi bitimlarning o'rtacha kunlik hajmi 166,02 mln. so'mni tashkil etdi.

Hisobot oyida “Stock Market” aksiyalar bozorining “Nego Board” savdo maydonida 84,06 mlrd. so'mlik 12 ta bitim tuzildi. Aksiyalar bozorining “FoP Board” maydonida 969,44 mlrd. so'mlik 16 ta bitim qayd qilindi.

“Bond Market” obligatsiyalar bozorining “Main Board” maydonida umumiy qiymati 12,31 mlrd. so'mlik 234 ta bitim amalga oshirildi.

Birja savdo maydonlari tahlili


2024 – yilning dekabr oyi yakunida “Stock Market” aksiyalar bozorining G1 - “Main Board” savdo maydonida 55 ta emitentning jami 3,32 mlrd. so'mlik aksiyalari bilan 24 833 ta bitim tuzildi.

| Bozor | Savdo maydoni | Bitimlar soni | Qimmatli qog'ozlar soni | Bitimlar hajmi, so'm |
|------------|---------------|---------------|-------------------------|----------------------|
| UZSE STOCK | Main Board | 24 833 | 556 589 415 | 3 320 444 044,90 |
| | Nego Board | 12 | 1 160 804 | 84 055 904 901,39 |
| | FoP Board | 16 | 7 807 236 199 | 969 441 268 511,00 |
| UZSE BOND | Main Board | 234 | 113 659 | 12 314 617 209,93 |
| | Jami | 25 095 | 8 365 100 077 | 1 069 132 234 667,22 |


Aksiyalar bozorining G1 - “Main Board” maydonida bitimlarning eng katta hajmi “O'zRTXB” AJning 317 533 dona (URTS) oddiy aksiyalari bilan 1,10 mlrd. so'mlik bitim amalga oshirilgan. Nominal qiymati 630,00 so'mni tashkil etuvchi qimmatli qog'ozlarning savdo narxi diapazoni 3 200,00 - 3 810,00 so'mni tashkil etgan.

T1 – “Nego Board” savdo bo'limida 84,06 mlrd. so'mlik 7 ta emitent bilan 12 ta bitim qayd etildi. Ushbu bo'limda tuzilgan bitimlarning eng katta hajmi “Biznes Centr Samarkand” AJning (BCSK) qimmatli qog'ozlari bilan bo'lib o'tgan 44,17 mlrd. so'mlik bitimga to'g'ri keldi.

Aksiyalar bozorining Main Board maydonida bo'lib o'tgan bitimlar soni, dona



Aksiyalar bozorining Main Board maydonida bo'lib o'tgan bitimlar hajmi, mlrd so'm



"Bond Market" obligatsiyalar bozori

Hisobot davri yakuniga ko'ra, "Bond Market" obligatsiyalar bozorida 4 ta qarz instrumentlarining 113 659 ta obligatsiyalar bilan umumiy qiymati 12,31 mlrd. so'mlik 234 ta bitim tuzildi:

- BFMT3V3 (MChJ «Biznes finans mikromoliya tashkiloti») – 11,04 mlrd. so'mlik 70 ta bitim;
- IFMT4 (AJ «Imkon finans mikromoliya tashkiloti») – 879,00 mln. so'mlik 58 ta bitim;
- BFMT3V2 (MChJ «Biznes finans mikromoliya tashkiloti») – 346,01 mln.so'mlik 89 ta bitim;
- IFMT3 (AJ «Imkon finans mikromoliya tashkiloti») – 46,80 mln.so'mlik 17 ta bitim;


Bugungi kunda "Toshkent" RFB birja kotirovkalash varag'ida 7 ta emitentning 13 ta qarz qimmatli qog'ozlari mavjud:

| № | Emitent | Tikker | Emissiya va so'ndirilish sanasi | Kupon stavkasi | Bitta obligatsiyaning nominal qiymati (UZS) | Emissiya qilingan obligatsiyalar soni |
|---|---|---------|---------------------------------|--------------------------|---|---------------------------------------|
| 1 | «Asia Alliance Bank» ATB | AABK1 | 15.07.2019-15.07.2026 | MB asosiy stavkasiga +4% | 1 000 000,00 | 45 175 |
| 2 | «Kapitalbank» ATB | KPB4 | 13.05.2020-21.05.2027 | MB asosiy stavkasiga +5% | 1 000 000,00 | 50 000 |
| 3 | «Biznes finans mikromoliya tashkiloti» MChJ | BFMT3 | 16.09.2022-30.08.2025 | 27,00% | 1 000 000,00 | 6 565 |
| | | BFMT3V2 | 09.10.2023-13.09.2026 | 27,00% | 100 000,00 | 200 000 |
| | | BFMT3V3 | 29.11.2024-20.11.2027 | 27,00% | 100 000,00 | 300 000 |
| 4 | «Imkon finans mikromoliya tashkiloti» AJ | IFMT3 | 10.04.2023-25.03.2026 | 28,00% | 1 000 000,00 | 6 000 |
| | | IFMT4 | 24.04.2024-09.04.2027 | 28,00% | 1 000 000,00 | 10 000 |
| 5 | «Hamkor invest lizing» MChJ | HKIL3 | 25.04.2023-06.05.2026 | 18,00% | 1 000 000,00 | 17 500 |
| 6 | «Hamkorbank» ATB | HMKB1 | 30.04.2024-30.04.2025 | 22,00% | 1 000 000,00 | 50 000 |
| 7 | «O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi» AJ | IQMK3 | 08.08.2024-17.10.2026 | 19,00% | 1 000 000,00 | 140 000 |
| | | IQMK3V2 | 08.08.2024-08.07.2027 | 19,00% | 1 000 000,00 | 150 000 |
| | | IQMK5E | 16.09.2024-18.09.2029 | 18,00% | 1 000 000,00 | 50 000 |
| | | IQMK3V4 | 13.11.2024-17.11.2027 | 19,00% | 1 000 000,00 | 250 000 |

“Main Board” bo'yicha Top – 10 aksiya


2024 - yil dekabr oyida “Toshkent” RFBning “Stock Market” aksiyalar bozorining G1- “Main Board” maydonida tuzilgan bitimlar soni va hajmi bo'yicha Top – 10 aksiyalar.

Bitimlar hajmi bo'yicha Top-10 aksiya, mlrd.so'm



Hisobot davri davomida bitimlarning eng katta hajmi “O'zRTXB” AJning (URTS) oddiy aksiyalari bilan qayd etilgan – 1,10 mlrd. so'mlik bitimlar tashkil etadi. Undan keyingi o'rinlarni “Universal bank” ATBning (UNVB) va “O'zmetkombinat” AJning (UZMK) oddiy aksiyalari egallagan, ular bilan mos ravishda 383,29 mln. va 214,65 mln. so'mlik bitimlar tuzilgan. Birinchi o'ntalikni “Chilonzor buyum savdo kompleksi” AJning (CBSK) va “Aloqabank” AKning (ALKBP) imtiyozli aksiyalari mos ravishda 95,57 mln. va 71,44 mln.so'm bilan yakunladilar.

Bitimlar soni bo'yicha Top - 10 aksiya, dona



Hisobod davrida eng ko'p bitimlar “O'zRTXB” AJning (URTS) oddiy aksiyalari bilan tuzilgan bo'lib, 3 455 donani qayd etgan. Keyingi o'rinlarni 2 853 va 1 797 ta bitim bilan “Chilonzor buyum savdo kompleksi” AJning (CBSK) oddiy va “Aloqabank” AKning (ALKBP) imtiyozli aksiyalari egalladi. Birinchi o'ntalikni “O'zbektelekom” AKning (UZTL) aksiyalari va «HAMKORBANK» (HMKBP) ATBning imtiyozli aksiyalari yakunlab, ular bilan mos ravishda 700 va 652 ta bitimlar tuzilgan.

“FoP Board” bozori

Joriy yilning dekabr oyida “FoP Board” savdo seksiyasida umumiy qiymati 969,44 mlrd.so‘m bo‘lgan 16 ta bitim tuzildi, bu umumiy birja bitimlari hajmining 90,68% ni tashkil etadi.


2 – dekabr kunlarida “Stock Market” aksiyalar bozorining “FoP Board” maydonida “GARANT BANK” AJning (GRBK) qimmatli qog'ozlari bilan 118,94 mlrd. so'mlik 1 ta bitim tuzildi. Bitimlar davomida 1,19 mlrd. dona oddiy aksiyalar sotildi va aksiyalarning savdo bahosi nominal qiymatiga teng bo‘lib, bir dona uchun 100,00 so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 4 va 5 - dekabr kunlari “FoP Board” savdo maydonida “Biznesni rivojlantirish banki” AKBning (BRBN) oddiy aksiyalari va “Mikrokreditbank” AKBning (MCBA) oddiy aksiyalari bilan 600,00 mlrd. va 90,00 mlrd.so‘mlik bitimlar bo‘lib o‘tdi. “Biznesni rivojlantirish banki” AKBning (BRBN) va “Mikrokreditbank” AKBning (MCBA) aksiyalarining nominal qiymati savdo narxiga teng bo‘lib, mos ravishda 119,25 va 1 068,00 so‘mni tashkil etdi.

2024 - yilning 6 va 14 - dekabr kunlari "Universal bank" ATBning (UNVB) qimmatli qog'ozlar bilan umumiy qiymati 10,50 mlrd. so'mga teng bo‘lgan 12 bitimlar tuzildi. Bitimlar davomida 2,10 mln. dona oddiy aksiyalar sotildi va aksiyalarning savdo bahosi nominal qiymatiga teng bo‘lib, bir dona uchun 5 000,00 so‘mni tashkil etdi.

Joriy yilning ushbu bo‘lim bo‘yicha eng so‘ngi bitim “GARANT BANK” AJning umumiy qiymati 150,00 mlrd. so‘mlik 1,50 mlrd. dona (GRBK) qimmatli qog'ozlari bilan amalga oshirildi. Aksiyalarning savdo bahosi nominal qiymatiga teng bo‘lib, bir dona uchun 100,00 so‘mni tashkil etdi.


FoP Board maydonining umumiy bitimlar hajmidagi ulushi, trln.so‘m




Tarmoqlar tahlili

Bitimlar hajmi bo'yicha tarmoqlar ichida bank va boshqa sohalar qimmatli qog'ozlari yetakchi bo'ldi. Bank sohasi emitentlarining qimmatli qog'ozlari bilan tuzilgan bitimlar hajmi 970,56 mlrd. so'mni tashkil etdi, bu umumiy birja aylanmasining 90,78% ni tashkil etdi. Boshqa sohalarga taalluqli kompaniyalar qimmatli qog'ozlari bilan – 93,40 mlrd. so'm hamda agrosanoat tarmog'iga kiruvchi tashkilotlarning qimmatli qog'ozlari bilan – 2,64 mlrd. so'mlik bitimlar qayd etildi.

2024-yil Dekabr oyida iqtisodiy sohalar bo'yicha bitimlar hajmi, %



2024-yil Dekabr oyida iqtisodiy sohalar bo'yicha bitimlar soni, dona




Eng ko'p bitimlar soni bank sektori emitentlarining qimmatli qog'ozlari bilan tuzilgan bo'lib, 10 946 ta bitimni tashkil etdi. Boshqa sohalar qimmatli qog'ozlari bilan 7 088 dona, "Energetika" sohasiga aloqador emitentlarining qimmatli qog'ozlari bilan esa 1 534 ta bitim tuzildi. Iqtisodiy tarmoqlar bo'yicha eng kam bitimlar soni "Transport" sohasida – 360 dona, va "Lizing" tarmog'ida – 54 donaga teng bo'lgan emitentlarning qimmatli qog'ozlari bilan tuzilgan bitimlarga to'g'ri keldi.

Investorlarning asosiy toifalari ulushi


2024-yil dekabr oyi oxirida RFB "Toshkent" qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish bo'yicha investorlarning asosiy toifalari orasida turli faoliyat turlarini ko'rsatdi.

Qimmatli qog'ozlarni sotib olishda eng katta hajm davlatga tegishli bo'ldi. Ushbu investorning umumiy hajmi 690,00 mlrd. so'mni yoki umumiy birja hajmining 64,54 foizini tashkil etdi. Jismoniy shaxslar va boshqa kompaniyalar tomonidan 283,77 mlrd. va 84,76 mlrd. so'mlik qimmatli qog'ozlar xarid qilindi, bu umumiy birja xarid hajmining mos ravishda 26,54% va 7,93% ni tashkil etdi. Eng kichik hajm QQB ishtirokchilariga (securities company) - 10,11 mlrd.so'm va sug'urta kompaniyalariga - 500,00 mln. so'm tegishli bo'ldi.

Dekabr oyida qimmatli qog'ozlarni sotib olish hajmi bo'yicha investorlarning asosiy toifalari



Dekabr oyida qimmatli qog'ozlarni sotish hajmi bo'yicha investorlarning asosiy toifalari




bo'ldi, yoki 12,80%, 3,84% va 3,81% ga teng bo'ldi. Eng kichik hajm QQB ishtirokchilariga (Securities company) tegishli bo'lib, ularning umumiy hajmi 28,11 mln. so'mni tashkil etdi.

Qimmatli qog'ozlarni sotish bo'yicha yetakchi - 850,50 mlrd. so'mlik qimmatli qog'ozlarni sotgan bank kompaniyalari bo'ldi, bu umumiy sotilgan qimmatli qog'ozlar hajmining 79,55 foizini tashkil etadi. Ulardan kegin jismoniy shaxslar, boshqa aksiyadorlik kompaniyalari va davlat pesh qadamlik qildi, ushbu investorlarning umumiy sotish hajmi mos ravishda 136,83 mlrd. so'm, 41,03 mlrd.so'm va 40,74 mlrd. so'mga teng


“Toshkent” RFBda Top - 10 brokerlar

2024 - yilning dekabr yakunlari bo'yicha "Toshkent" RFBga a'zo bo'lgan akkreditatsiyalangan investisiya vositachilari (brokerlari) soni 49 tani tashkil etdi. Ular orasidan quyidagi brokerlar bitimlar soni va savdo hajmi bo'yicha top - 10 talikka kirishdi

Xaridlar bo'yicha bitimlar soni




Xaridlar bo'yicha bitimlar hajmi, mlrd.so'm




Qimmatli qog'ozlarni sotib olishda vositachilik qilgan brokerlik tashkilotlari orasida bitimlar soni bo'yicha eng ko'p bitimlar "Alkes Research" MChJ orqali amalga oshirilib, 15 386 ta bitimni tashkil etdi. Savdolarning eng katta hajmi "Birinchi Banklararo" MChJ ishtirokidagi 600,00 mlrd. so'mlik qimmatli qog'ozlarni xarid qilish bo'yicha qayd etildi. Bitimlar hajmi bo'yicha top - 10 talikdagi keyingi o'rinlarni tegishli ravishda 269,05 mlrd. va 131,04 mlrd. so'm bitimlar bilan "Finance Invest Broker" MChJ va "Portfolio Investment" MChJ egalladi.

Sotuvlar bo'yicha bitimlar soni




Sotuvlar bo'yicha bitimlar hajmi, mlrd.so'm



Eng ko'p bitimlar "Alkes Research" MChJ brokeri orqali aksiya va obligatsiyalarni sotish bo'yicha tuzilgan bo'lib, 11 585 donani tashkil etgan. Qimmatli qog'ozlarni sotish bo'yicha top o'ntalikdan keyingi o'rinlarni mos ravishda 3 547 va 2 721 ta bitim bilan "Portfolio Investment" MChJ va "DALAL STANDARD" MChJ egalladi. Qimmatli qog'ozlarni sotish bo'yicha bitimlar hajmi bo'yicha eng yirik bitim "Birinchi Banklararo" MChJ orqali amalga oshirildi va 729,89 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Aksiya emitentlarining umumiy bozor kapitallashuvi

Hisobot davrida birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan aksiya emitentlarining umumiy bozor kapitallashuvida 236,93 trln. so'mdan 242,42 trln. so'mgacha bo'lgan diapazonda o'zgarishlar qayd etildi.



2024 – yil 27 –dekabr holatiga ko'ra, birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan aksiya emitentlarining umumiy bozor kapitallashuvi 242,42 trln. so'mni tashkil etdi.

Oy boshi bilan solishtirganda ushbu ko'rsatkich 2,32 foizga oshgan. Davr oxirida aksiya emitentlari soni 89 donaga yetdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan umumiy bozor kapitallashuvi 72,99 trillion so'mga oshgan (43,08%).

Bozor kapitallashuvining eng katta hajmi 27 – dekabrga to'g'ri kelib, 242,42 trln. so'mgacha ko'tarilgan. Bozor kapitallashuvining eng past qiymati 11 – dekabr kuni qayd etilgan bo'lib, ushbu davrda emitentlarning umumiy bozor kapitallashuvi 231,95 trln. so'mni tashkil etgan. Shuni ta'kidlash joizki, hisobot davrining yakuniga qadar umumiy bozor kapitallashuvi kichik tebranishlar bilan barqarorlikni ushlab turibdi.

Birja kotirovkalash varag'i

2024 - yil 1 - dekabr holatiga ko'ra, birja kotirovkalash varag'ida 91 ta emitentning 138 ta instrumentlari mavjud edi.


Joriy oyda "Toshkent" RFB birja kotirovkalash varag'ida delisting jarayoni amalga oshirilmadi.

2024-yil 20 - dekabr kuni birja kotirovkalash varag'iga mos ravishda "Bag'doddonmahsulotlari" AJning oddiy (BDDM) va imtiyozli aksiyalari (BDDMP) kiritildi. Shuningdek, 23- dekabr kuni "Toshkentdonmahsulotlari" AJning oddiy (TKDM) va imtiyozli (TKDMP) aksiyalari birja kotirovkalash varag'iga kiritildi.

Natijada, 2024 - yil 27- dekabr yakuniy holatiga ko'ra, birja kotirovkalari varaqasida 93 ta emitentning 142 ta instrumenti mavjud bo'lib, ulardan: 89 tasi aksiyalar, ulardan 3 tasi obligatsiyalar emitentlari; 4 ta emitent - faqat obligatsiya emitentlari hisoblanadi.


Listing toifalari bo'yicha aksiya bozorining birja bitimlari to'g'risidagi ma'lumot

Bitimlar soni, dona



■ Premium ■ Standart ■ Tranzit











Bitimlar hajmi, mlrd so'm



■ Premium ■ Standart ■ Tranzit

Savdo narxlari o'zgarishi tahlili

2024 – yil Dekabr oyidagi eng likvidli qimmatli qog'ozlar** narxidagi o'zgarishlar*

| № | Emitent nomi Tikker | 01.12.2024 yildagi yopilish narxi | 31.12.2024 yildagi yopilish narxi | Narxlar o'zgarishi | Yopilish narxi dinamikasi |
|----|--|---|---|-----------------------|---|
| 1 | ATB "Hamkorbank" HMKBP | 20,50 | 23,00 | 12,20% |  |
| 2 | AJ "O'zRTXB" URTS | 3 349,00 | 3 650,00 | 8,99% |  |
| 3 | ATIB "Ipoteka-bank" IPTB | 1,13 | 1,19 | 5,31% |  |
| 4 | AJ "O'zbektelekom" UZTL | 4 039,00 | 4 050,00 | 0,27% |  |
| 5 | AJ "O'zbekneftgaz" UZNGP | 1 620,00 | 1 610,00 | -0,62% |  |
| 6 | ATB "Hamkorbank" HMKB | 24,65 | 24,39 | -1,05% |  |
| 7 | AITB "Ipak Yo'li" IPKY | 132,94 | 128,00 | -3,72% |  |
| 8 | AK "Aloqabank" ALKB | 0,43 | 0,40 | -6,98% |  |
| 9 | AK "Aloqabank" ALKBP | 3,00 | 2,78 | -7,33% |  |
| 10 | AJ "Chilonzor buyum savdo kompleksi" CBSK | 2,33 | 1,96 | -15,88% |  |

* Hisobot oyidagi birinchi bitimning ochilish narxlari va oxirgi bitimning yopilish narxlari taqqoslangan.

**Bitimlar soni bo'yicha top 10ta qimmatli qog'ozlar eng likvidli qimmatli qog'ozlar sifatida qabul qilingan (7-bet)

Dekabr oyi boshidagi aksiyalarning yopilish narxi bilan 27 – dekabrda yopilish narxini solishtirsak, eng ko'p savdo qilingan aksiyalar orasida to'rtta emitent qimmatli qog'ozlari narxi **▲0,27%** dan **▲12,20%** gacha oshgani qayd etildi. Narxlarning sezilarli o'sishini **▲12,20%** bilan "Hamkorbank" ATBning (HMKBP) imtiyozli aksiyalari ko'rsatdi. Shuningdek, "O'zRTXB" AJning (URTS), "Ipoteka-bank" ATIBning (IPTB) va "O'zbektelekom" AJning (UZTL) oddiy aksiyalari mos ravishda **▲8,99%**, **▲5,31%** va **▲0,27%** ga oshdi.

Joriy oyda 6 emitentning qimmatli qog'ozlari narxlarida biroz pasayishi kuzatilgan bo'lib, narx tushish darajasi **▼0,62%** - **▼15,88%** oralig'ida bo'ldi. "O'zbekneftgaz" AJning imtiyozli (UZNGP) va "Hamkorbank" ATBning oddiy (HMKB) aksiyalari narxlari (1 620,00 dan 1 610,00 ga) va (24,65 dan 24,39 ga) mos ravishda **▼0,62%** va **▼1,05%** ga tushdi. Shuningdek, "Ipak Yo'li" AITBning (IPKY), "Aloqabank" AKning (ALKB) va (ALKBP) va "Chilonzor buyum savdo kompleksi" AJning (CBSK) aksiyalari narxlari mos ravishda **▼3,72%**, **▼6,98%**, **▼7,33%** va **▼15,88%** ga tushdi.



TOSHKENT
REPUBLICAN STOCK EXCHANGE


LISTINGDAN TASHQARI SAVDO MAYDONI (LTSM)

Dekabr 2024

LTSMda savdolar tahlili


Ko'rib chiqilayotgan davrda "Toshkent" RFBning listingdan tashqari savdo maydonlarida 95 ta emitentning 13,10 mlrd. dona qimmatli qog'ozlari bilan jami 897,09 mlrd. so'mlik 5 021 ta bitimlar qayd etildi.

Bitimlar soni, dona



Kundalik hisobda eng ko'p bitimlar 23 – dekabr kuni amalga oshirilgan bo'lib, 479 donani; eng kam esa 19 – dekabrda qayd etilgan bo'lib, 151 dona bitimni tashkil etgan. Dekabr oyida o'rtacha kunlik savdo bitimlari soni 251 ta bitimni tashkil etgan bo'lib, bu o'tgan oyga nisbatan 18,42%ga ko'p.

Bitimlar hajmi, mlrd.so'm



Bitimlarning eng katta hajmi 18 – dekabr kunida amalga oshirilgan bo'lib, kun davomida 473,43 mlrd. so'mdan ortiq bitimlar amalga oshirilgan, eng kam bitimlar hajmi 16 – dekabr kuni 6,38 mln. so'mni tashkil etgan. Dekabr oyida o'rtacha kunlik savdolar hajmi 44,85 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

LTSM savdo maydonlari tahlili


“SME Stock” aksiyalar bozorining G1 – “Main Board” listingdan tashqari asosiy savdo maydonida 88 ta emitentning aksiyalari bilan jami 151,69 mlrd. so'mlik 4 984 ta bitimlar qayd etildi.

| Bozor | Savdo maydoni | Bitimlar soni | Qimmatli qog'ozlar soni | Bitimlar hajmi, so'm |
|------------------|---------------|---------------|-------------------------|--------------------------|
| SME STOCK | Main Board | 4 984 | 236 586 145 | 151 689 866 368,21 |
| | Nego Board | 34 | 6 786 950 896 | 96 167 267 818,42 |
| JAMI | | 4 461 | 118 153 318 | 71 780 721 409,86 |


Listingdan tashqari aksiyalar bozorining “Main Board” savdo maydonida bitimlarning eng katta hajmi “SMART BANK” AJning umumiy qiymati 150,00 mlrd. so'm bo'lgan 150,00 mln. dona (OSBK) aksiyalar bilan savdolar amalga oshirildi. Aksiyalarning savdo narxi nominal qiymatiga teng bo'lib 1 000,00 so'mni tashkil etdi.

Qimmatli qog'ozlar “SME Stock” bozorining “Nego Board” maydonidagi eng yirik bitim “RKTASB” AJning (ORAB) 2,33 mlrd. dona aksiyalari bilan tuzildi. Umumiy qiymati 60,46 mlrd. so'mni tashkil qilgan aksiyalarning savdo narxi - 26,00 so'mni va nominal qiymati – 1,00 so'mni tashkil etdi.

Aksiyalar bozorining Main Board savdo maydonidagi bitimlar soni, dona




Aksiyalar bozorining Main Board savdo maydonidagi bitimlar hajmi, mln. so'm



“Main Board” bo'yicha Top-5 aksiya

“Toshkent” RFBning “SME Stock” aksiyalar bozorining G1- “Main Board” listingdan tashqari aksiyalar savdo maydonida tuzilgan bitimlar soni va hajmi bo'yicha Top-5.

Bitimlar soni bo'yicha Top-5 aksiya, dona



Eng ko'p bitimlar hajmi “Uzsanoateksport” AJning (OSNE) aksiyalari bilan tuzilgan 786 dona bitimga to'g'ri keldi. Undan keyingi o'rinlarni “JIZZAX PLASTMASSA” AJning (JIPL) va “Kogon yog'-ekstraksiya zavodi” AJning (OKYZ) oddiy aksiyalari bilan mos ravishda tuzilgan 434 va 257 ta bitimlar egalladi. Top-5 likni “HUMO SUGURTA” AJning (OHMS) oddiy va “KAFOLAT” AJning (OKSK) oddiy aksiyalari bilan tuzilgan 202 ta va 200 ta bitimlar yakunladi.

Bitimlar hajmi bo'yicha Top-5 aksiya, mln.so'm



Bitimlarning eng katta hajmini “SMART BANK” AJning (OSBK) va “Asaka yog'” AJning (OAKY) aksiyalari bilan mos ravishda 150,00 mlrd. va 632,95 mln. so'mlik bitimlar tashkil etdi. Undan keyingi o'rinlarni “TOSHKENTVINO KOMBINATI” AJning (OTVK) va “RKTASB” AJning (ORAB) aksiyalari bilan mos ravishda 71 va 1 ta tuzilgan 260,60 mln. va 260,60 mln. so'mlik bitimlar egalladi. Top-5 likni umumiy qiymati 189,01 mln. so'mga teng bo'lgan “OLCHAZOR AZIYA” AJning (OLCZ) aksiyalari yakunladi.